



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida investitsion faoliyoti oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 %ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 10 715,8 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 64,1 %i yoki 6 873,9 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 35,9 % yoki 3 841,9 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi, 13,1 %ni yoki 1 402 ,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 9 312,9 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 86,9% investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar

Markazlashgan investitsiyalar

1 402,9
mlrd. so'm

10 715,8
mlrd. so'm

o'sish sur'ati
112,4 %

Markazlashmagan investitsiyalar

9 312,9
mlrd. so'm

O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar

450,6
mlrd. so'm

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar


5 358,3
mlrd. so'm

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya

1 912,8
mlrd. so'm


**Markazlashgan moliyalashtirish
manbalari hisobidan investitsiyalar
tarkibi, %da**

**O'tgan yilning mos davriga
nisbatan, o'sish sur'ati %da**



**Markazlashmagan
moliyalashtirish manbalari
hisobidan investitsiyalar tarkibi,**


**O'tgan yilning mos davriga
nisbatan, o'sish sur'ati %da**



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari va mahaliy budgeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 1 999,5 so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,7 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,2 %i yoki 1 842,4 mlrd. so'mni o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1 912,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi ko'rsatgichi 1,1 % punktga kamaydi, 17,8 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbaları bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm





Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 563,3 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 5,3 %ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi ko'rsatgichi 0,4 % punktga kamaydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 450,6 mlrd. so'm (4,2 % va ulushi ko'rsatgichi 2,4 % punktiga ko'paydi), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 2 994,9 mlrd. so'm (27,9 % va ulushi ko'rsatgichi 7,9 % punktga ko'paydi), Respublika budgeti 758,1 mlrd. so'm (7,1 % va ulushi ko'rsatgichi 2,4 % punktga kamaydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 194,2 mlrd. so'm (1,8 % va ulushi ko'rsatgichi 0,5 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kafolatlanmagan kreditlarda kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 169,7 %ga o'shdi. Bunday yuqori o'sishga Qo'shtega tumanida joylashgan "GLOBAL TEXTILE INFINITY" MCHJ - to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, hamda Quvasoy shahri "ART SOFT CERAMICS" MCHJ tomonidan keromogranit plita ishlab chiqarish loyihalari doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar sabab bo'ldi.


Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil etib, "Farg'ona Yasin Qurilish Mollari" MCHJ QK va "MODERNA CEMENT INDUSTRIES" MCHJ QK tomonidan sement ishlab chiqarish tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.


Moliyalashtirish manbaalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan % da):						
		Respublika budjeti	Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Farg'ona viloyati:	10715,8	7,1	18,7	17,2	50,0	1,8	5,2	0,0
shaharlar:								
Farg'ona sh.	2 811,1	9,3	36,1	10,7	34,4	1,3	8,2	
Qo'qon sh.	742,1	5,9	16,3	19,3	54,4	0,2	3,9	
Quvasoy sh.	386,3	3,1	17,2	9,1	66,7	1,2	2,7	
Marg'ilon sh.	514,4	6,2	19,9	18,2	48,2	0,6	6,9	
Tumanlar:								
Oltiariq	363,7	1,5	22,8	31,5	31,7	3,7	8,8	
Qo'shstepta	892,5	2,2	2,1	16,3	78,1	1,3	0,0	
Bag'dod	393,2	7,3	18,1	29,3	39,9	1,6	3,8	
Buvayda	223,8	10,7	21,0	49,5	11,4	3,7	3,7	
Beshariq	479,4	9,8	7,4	12,1	67,0	1,2	2,5	
Quva	262,9	9,8	16,2	36,0	29,0	3,5	5,5	
Uchko'prik	854,6	2,7	3,9	7,1	84,4	0,2	1,7	
Rishton	333,8	4,0	2,8	13,1	71,9	7,9	0,3	
So'x	153,3	31,9	39,1	16,1	4,6	2,9	5,4	
Toshloq	662,5	6,8	4,4	20,4	56,6	1,9	9,9	
O'zbekiston	361,7	6,6	16,4	26,2	41,8	5,7	3,3	
Farg'ona t	337,9	15,6	31,9	6,9	41,6	2,4	1,6	
Dang'ara	440,8	5,1	6,6	21,0	51,5	2,6	13,2	
Furqat	258,4	3,3	15,2	27,7	49,6	1,2	3,0	
Yozyovon	243,4	8,1	12,6	33,8	41,3	2,2	2,0	

*Shahar va tumanlar tamonidan taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

2022-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar





Farg'ona viloyatidagi
ulushi

3,4 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

361,7

o'sish sur'ati

62,9 %

O'zbekiston
tumani

Farg'ona
tumani

o'sish sur'ati

65,5 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

337,9

Farg'ona viloyatidagi
ulushi

3,2 %

Farg'ona viloyatidagi
ulushi

4,1 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

440,8

o'sish sur'ati

157,6 %

Dang'ara
tumani

Furqat
tumani

o'sish sur'ati

77,0 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm

258,4

Farg'ona viloyatidagi
ulushi

2,4 %

Farg'ona viloyatidagi
ulushi

2,3 %

investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm


243,4

o'sish sur'ati

170,3 %

Yozyovon
tumani

2022- yil yanvar-sentabr oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 235,7 %ga o'sib, Qo'shtepa tumani kuzatildi. Bu asosan "GLOBAL TEXTILE INFINITY" MCHJ - to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish.

Shuningdek, Toshloq tumani ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 184,3 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "Posco International Textile" MChJ Xorijiy Korxonada tomonidan paxtachilik klasteri tashkil etish.

Viloyatda investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan Farg'ona shahri (26,2 %), Qo'shtepa tumani (8,3 %), hamda Uchko'prik tumani (8,0 %) ushbu tuman va shaharlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmi o'sish sur'atining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning
texnologik tarkibi, (%da)**



Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 4 660,6 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 43,5 %ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 5 482,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 51,2 %) va boshqa xarajatlarga 572,9 mlrd. so'm (5,3 %) o'zlashtirildi.

Shahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Rishton tumanida kuzatildi – 86,9 % yoki 290,2 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Quvasoy shahrida kuzatilib, 20,3 %ni yoki 78,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Farg'ona shahrida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib – 56,7 % yoki 1 594,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jami hajmdagi % da)



Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 6 655,4 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 62,1 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2 535,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 23,7 %ini tashkil etdi. Qolgan 14,2 %, ya'ni 1 524,9 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

<i>Jami hajmdagi ulushi % da</i>				
		<i>Qurilish montaj ishlari</i>	<i>Mashina, uskuna, inventarlar</i>	<i>Boshqa xarajatlar</i>
	Farg'ona viloyati	51,2	43,5	5,3
	<i>shaharlar:</i>			
	Farg'ona	38,5	56,7	4,8
	Qo'qon	54,1	44,7	1,2
	Quvasoy	20,3	74,3	5,4
	Marg'ilon	61,7	36,1	2,2

	<i>tumanlar:</i>			
	<i>Oltiariq</i>	50,7	38,8	10,5
	<i>Qo'shtepa</i>	52,2	46,5	1,3
	<i>Bag'dod</i>	71,2	16,6	12,2
	<i>Buvayda</i>	68,4	24,1	7,5
	<i>Beshariq</i>	39,0	56,5	4,5
	<i>Quva</i>	40,6	47,1	12,3
	<i>Uchko'prik</i>	48,4	49,6	2,0
	<i>Rishton</i>	86,9	7,3	5,8
	<i>So'x</i>	81,7	10,9	7,4
	<i>Toshloq</i>	53,2	43,7	3,1
	<i>O'zbekiston</i>	54,6	39,3	6,1
	<i>Farg'ona</i>	63,3	26,5	10,2
	<i>Dang'ara</i>	70,6	18,8	10,6
	<i>Furqat</i>	78,5	10,0	11,5
	<i>Yozyovon</i>	49,3	39,5	11,2

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirishda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan

4 882,2 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 45,6 %i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar quyidagi 3 ta faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirilgan:

- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 2 264,1 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 21,1 %).

- boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish –


- 734,8 mlrd. so'm (6,9 %);

- koks va qayta ishlangan neft mahsulotlarini ishlab chiqarish – 635,3 mlrd. so'm (5,9 %).

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi jami 1 190,7 mlrd. so'm yoki viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 11,1 %i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 11,1 %i yoki 1 184,4 mlrd. so'mi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohasiga tegishlidir.



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha tarkibida katta ulushga ega sohalar**
(jamiga nisbatan %da)



2022- yil yanvar-sentabr oylarida 5 358,3 mlrd. soʻm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 50,0 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan oʻzlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 2 051,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi va qolgan 3 306,9 mlrd. soʻm xorijiy kreditlar hisobiga toʻgʻri keldi.


Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. soʻm

	Jami	<i>Shu jumladan:</i>		
		Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar	Oʻz.R kafolati ostida xorijiy kreditlar	Boshqa investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar
Fargʻona viloyati	5 358,3	1 912,8	450,6	2 994,9
Fargʻona sh.	966,4	103,8	426,5	436,1
Qoʻqon sh.	403,7	360,4		43,3
Quvasoy sh.	257,8	29,7	12,0	216,1
Margʼilon sh.	247,7	0,0		247,7
Oltiariq t.	115,2	33,0	0,3	81,9
Qoʼshtepa t.	696,6	0,0	8,7	687,9
Bagʼdod t.	157,1	82,6	1,2	73,3
Buvayda t.	25,5	0,0		25,5
Beshariq t.	321,2	315,8		5,4
Quva t.	76,2	28,9	0,1	47,2
Uchkoʼprik t.	721,5	316,0		405,5
Rishton t.	240,0	145,3	0,2	94,5
Soʼx t.	7,0	5,5		1,5
Toshloq t.	375,0	59,3	0,2	315,5
Oʻzbekiston t.	151,0	96,0		55,0
Fargʻona t.	140,5	59,6		80,9
Dangʼara t.	227,3	66,1	0,1	161,1
Furqat t.	128,2	117,7	1,3	9,2
Yozyovon t.	100,4	93,1		7,3

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 1 912,8 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 450,6 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 137,1 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %da



**Foydalanishga topshirilgan turar-joylar tarkibi
%da**

96,5 %



ming kv.m
947,5

*Qishloq joylar
ulushi 67,7 %*

3,5 %



*Qishloq joylar
ulushi 100 %da*

Yakka tadbirkor uy-joy qurilishi



Qishloq qurilish invest

**Foydalanishga topshirilgan
ijtimoiy soha obyektlari tarkibi**

Shahar joylarda



Qishloq joylarda



Joriy davrda jami umumi maydoni 947,5 ming kv.m bo'lgan 4160 ta turar-joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumi maydoni 639,1 ming kv.m bo'lgan 2831 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan. Umumi maydoni 913,9 ming kv.m bo'lgan 4143 ta turar-joy obyektlari yakka tartibdagi yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumi maydoni 619,1 ming kv.m bo'lgan 2817 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan. Umumi maydoni 20,0 ming kv.m bo'lgan 14 ta turar-joy obyektlari Qishloq qurilish invest yangi qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumi maydoni 20,0 ming kv.m bo'lgan 14 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.

Viloyat bo'yicha 249,3 km suv va 5,2 km gaz tarmog'i ishga tushirilgan bo'lib, ulardan 215,3 km suv va 5,2 km gaz tarmog'i qishloq joylarga to'g'ri keladi.



*Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi*

Aloqa telefoni: **(73) 241-98-42**
249-87-26